

**CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI KASBIY  
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI****Tojiboyev Muzaffar***Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada bugungi kunda harbiy ta'lim jarayonida yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash va ulardf Vatanga bo'lgan xis-tuyg'ularni shakllantirish to'g'risida fikrlar bildirilgan.*

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchi yoshlarning Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarligini tashkil qilish va o'tkazish va ularning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi xizmatga tayyorlash bo'yicha o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun harbiy - pedagogik bilim, mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim<sup>11</sup>.

Talabalarning maxsus tayyorgarligi harbiy fakultetlarning "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi. U talabalarning harbiy tayyorgarligi to'g'risidagi Qonun, ilm olishga oid muassasalarning harbiy fakultetlari to'g'risidagi Qonun, yoshlarning Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarligi Qoida Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi, Quruqlikdagi qo'shinlar Bosh Qo'mondoni buyruqlari va direktivalari, nizomlar, qo'llanmalar, otish va jangovar mashinalarini haydash bo'yicha kurslar, o'quv dasturlari to'plamiga muvofiq o'tkaziladi.

Talabalar maxsus tayyorgarligini rejalashtirish ta'lim muassasalari harbiy fakultetlari "harbiy kun" metodi bilan fuqarolik ta'lim muassasalarining harbiy fakultetlarida o'quv jarayonini tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha o'quv rejasi va Yo'riqnomasi talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Navbatdagi yilga mashg'ulotlarni rejalashtirishda talabalarning harbiy va maxsus tayyorgarligini, yoshlarning Chaqiriqqacha boshlang'ich harbiy tayyorgarligini va o'quv materialini o'zlashtirish darajasini yaxshilash masalalari bo'yicha buyruqlar va direktivalar talablaridan kelib chiqadigan zaruriy qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritiladi. Shu maqsadlarda harbiy fakultet boshlig'iga yangi mavzularni kiritish, fanni o'rganishga ajratilgan soatlarning har bir fan bo'yicha o'qish vaqtini qayta taqsimlash huquqi beriladi. Dasturdagi o'zgartirishlar hamda mavzularni o'rganishning izchilligi, ularning fakultet metodik yig'ilishidagi muhokamasidan so'ng, fakultet boshlig'i qarori bilan tasdiqlanadi.

Talabalarni maxsus tayyorgarlik bo'yicha fanlarga o'qitishda bosh e'tibor, Chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan ma'naviy - siyosiy va harbiy - pedagogik sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish, yuksak pedagogik madaniyatni tarbiyalashga qaratiladi. Talabalarga harbiy-pedagogik ko'nikmalar Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlikni tashkil qilish metodikasi bo'yicha mashg'ulotlarda, mudofaa-sport sog'lomlashtirish oromgohlarida, boshqa

<sup>11</sup> «O'smirlarni chaqiriqqacha tayyorlash to'g'risidagi Nizomi» 1994 y «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» o'quv dasturi 2010 y.

fanlar bo'yicha mashg'ulotlarda, hamda talabalar tomonidan o'qishning bitiruvchi - bosqichidagi malakaviy amaliyotni o'tash davrida o'rgatiladi.

Talabalarining maxsus tayyorgarligi zaxiradagi ofiser-motoo'qchi guruhlar komandirlarining harbiy tayyorgarligi amalga oshirilayotgan fanlar bilan uzviy aloqadadir. U harbiy fakultetning o'quv sinflarida va ob'ektlarida, umumta'lim, o'rta maxsus va kasb ta'limi muassasalarining Chaqiriqqacha boshlang'ich harbiy tayyorgarligi bo'yicha o'quv ob'ektlarida va mudofaa - sport sog'lomlashtirish lagerlarida o'tkaziladi.

Talabalarining Chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisi lavozimidagi malakaviy amaliyot dasturi talablariga muvofiq, harbiy fakultet tomonidan tashkil qilinadi va o'tkaziladi. bitiruvchi -bosqichdagi malakaviy amaliyotni har bir talaba shu tuman va viloyatning o'rta maxsus va kasb xunar muassasalarida o'tkazadilar va ba'zan o'qishni tugatgandan so'ng bitiruvchilar o'z kasbiy faoliyatini davom ettirishlari mumkin. Malakaviy amaliyot u yoki bu muassasalarida o'tkaziladi. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tuzilgan shartnomalar asosida talabalarining pedagogik amaliyotiga rahbarlik harbiy fakultet o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi. Talabalar malakaviy amaliyotga Chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisi lavozimida yuboriladilar.

Oliy ta'lim muassasasidagi o'qishni tugatgach, maxsus tayyorgarlik bo'yicha bitiruv malakaviy ishning himoyasi va "Yoshlarni Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarligi" fani bo'yicha davlat attestatsiyasi o'tkaziladi. Bitiruv malakaviy ishning va davlat attestatsiyasining baholanishi Oliy ta'lim muassasalarda belgilangan talablarga muvofiq o'tkaziladi.

Mashg'ulotlarni tashkil qilish va ularni o'tkazishda o'qituvchilar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining reglamentlovchi hujjatlari, buyruqlari va direktivalariga amal qiladilar. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim masalalari bo'yicha ular mazmunini talabalarga yetkazadilar, ularni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilishga va Chaqiriqqacha harbiy ta'lim oluvchilarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga tayyorlaydilar.

Harbiy fakultet O'zbekiston Respublikasi akademik litsey va kasb -hunar kollejlari va Xalq ta'limi vazirligi uchun kadrlar tayyorlaydi. Shuningdek fakultet bronetransportyorlardagi motoo'qchi bo'linmalari uchun rezervdagi ofitserlarni tayyorlashga ixtisoslashgan. Harbiy fakultetga O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligining qo'shma qaroriga muvofiq "zaxiradagi leytenat" unvoni berilishi bilan Chaqiriqqacha harbiy ta'lim - bakalavri yo'nalishidagi mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha fakultet mavqeyi berilgan. Fakultet mutaxassislari motoo'qchi bo'linmalari komandirlari hisoblanib, Qurolli Kuchlarda va Shu yo'nalishdagi boshqa sohalarda xizmat qilishi mumkin. Fakultet faoliyatining ob'ekti sifatida kollejlari va litseylarda ta'lim olayotgan yoshlar hisoblanadi. Fakultet bitiruvchilari - yuqori malakali mutaxassislardir. Ularning safidan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilayotgan, xalq ta'limi ob'ektlarida va boshqa sohalarda ishlayotgan yuqori malakali kadrlar yetishib chiqqan.

Harbiy fakultetda talabalarining o'qitilishi asosan, ikki yo'nalishda tashkil etilgan. Bu harbiy va maxsus fanlar bloklari bo'lib, ular o'qishni tashkil qilish va olib borishda o'z natijalarini bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusupov Arabboy Theoretical And Practical Pedagogical Bases of Formation of Professional Culture of Students of Military Education
2. Yusupov Arabboy Bahodirjon Ugli “Education Is the Foundation of Sustainability Journal of Pedagogical Inventions and Practices” ISSN: 2770-2367 <https://zienjournals.com> Date of Publication: 05-12-2021
3. Yusupov Arabboy Bohodirjon Historical Laws of Development of The System of Physical Education, General Principles of Physical Education, Ways of Their Implementation in The Classroom Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 <https://zienjournals.com> Date of Publication: 29-12-2021
4. Yusupov Arabboy Baxodirjon ogli Scientific And Methodological Fundamentals of Studying the Concept of Patriotism Zien Journal of Social Sciences and Humanities ISSN NO: 2769-996X <https://zienjournals.com> Date of Publication: 05-12-2021